

---

## Nuroniylar holidan xabar olinmoqda

“Keksalar haftaligi” doirasida doim e’tiborimizda bo’lgan keksa avlod vakillaridan yana bir bor xabar olish, ularni ziyorat qilish maqsadida Rishton tumanida qator tadbirlar bo’lib o’tmoqda.

Shunday tadbir doirasida tuman hokimi Bahodir Xodiqov va tuman DSI boshlig’i Saida Nurmatovalar uzoq yillar soliq tizimida ishlagan Bihojira aya Madisayeva holidan xabar olishdi.

Shu o’rinda Bihojira aya tinchligimizni, bu bizlarga berilgan barcha ne’matlarni qadriga yetish to’g’risida nasihat qilib kelgan mehmonlarni duo qildi.

“Keksalar haftaligi” doirasida joylarda o’tkazilayotgan bu kabi tadbirlarda keksalarimizning bosib o’tgan yo’li, hayotiy tajribasi yoshlarga ibrat ekanligi yana bir bora o’z ifodasini topmoqda.

2023-10-03 18:06:50